

Rasmiy bayonot

// 10.10.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bayonot-navoiyazot267>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi "Navoiyazot" AJ faoliyati haqida ijtimoiy tarmoqdagi kanallarda daryo suvi zaharlanib, ko'plab baliqlar nobud bo'lganligi to'g'risidagi xabar tarqaldi. Ushbu masala yuzasidan "Navoiyazot" AJ jamiyatining birlamchi [rasmiy bayonoti](#) e'lon qilindi. "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan olib borilgan o'rganish natijalari yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

"Navoiyazot" AJga qarashli 267-quduqdan tashlanayotgan oqova suvlaridan joriy yil 4-oktyabr kuni korxonalar sanitar laboratoriyasi tomonidan qo'shimcha namunalar olinib tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xloridlar miqdori ruxsat etilgan normadan, ya'ni 300 mg/m³ miqdoridan oshmagan va misning miqdori ham ruxsat etilgan normaga (0,001 mg/m³) yaqin bo'lganligi tasdiqlandi.

Navoiy viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan har chorakda "Navoiyazot" AJ oqova suvlari monitoringi olib boriladi. 2017 yilda olingan namunalarning tahlil natijalarida azot guruhi moddalarining kontsentratsiyasi maqoladagi ko'rsatkichlardan ko'ra yuqoriroq bo'lgan. Ammo bunday kontsentratsiyalar Zarafshon daryosidagi baliqlarning nobud bo'lishiga olib kelmagan, ya'ni o'sha yili baliqlarning nobud bo'lishi qayd qilinmagan.

Shu o'rinda baliq yetishtirish xo'jaliklarida ozuqa uchun ammoniy moddalaridan foydalangan holda baliq yetishtirishning intensiv texnologiyalari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Bunga misol qilib baliq yetishtirishda ammofos o'g'iti beriladi. Uning tarkibida esa fosfor va ammoniy birikmalari mavjud.

"Navoiyazot" AJ tabiatni himoya qilish va atrof-muhit musaffoligini saqlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri hamda korxonani uzoq muddatli rivojlanishining asosiy shartlaridan deb hisoblaydi. Asosiysi tabiatni asrab-avaylashni o'zining birinchi o'rindagi asosiy vazifalaridan biri ekanligini angelaydi. Shu sabab jamiyatda hosil bo'ladigan sanoat oqova suvlarini daryoga chiqarishdan avval doimiy ravishda birlamchi tozalashdan o'tkazadi. Shuningdek, korxonaning balansida yirik ahamiyatga ega tabiatni muhofazalash ob'ekti - Navoiy shahri va sanoat korxonalari oqova suvlarini biokimyoviy tozalash inshooti mavjud. Biokimyoviy tozalash inshootiga keladigan oqova suvlarining 81 foizini Navoiy shahri va boshqa sanoat korxonalari oqova suvlari tashkil qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ommaviy axborot vositalaridan vaziyatni atroflicha o'rgangan holda professional jurnalistik surishtiruv o'tkazib xolis baho berishlarini so'rab qolamiz. "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati va tizimdagi korxonalar tashkilotlarda tashkil etilgan matbuot xizmatlari jurnalistlar bilan doimo hamkorlik qilishga tayyor ekanligini va ularni qiziqtirgan barcha savollarga qonun doirasida javob berishga tayyor ekanligini ma'lum qiladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun tashkilot Matbuot xizmatining 78 140-74-26 telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati